



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 297-303 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MAMLAKATIMIZDA SANOAT VA MAISHIY TEXNIKA SOHASINING RIVOJLANISHI



**Mamasoliev G'ayratbek Maxamadyusupovich**

Andijon davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası v.b. dotsent

**Annotasiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sanoat va maishiy texnika sohasining rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Unda mamlakatimizda ushbu sohalarning iqtisodiyotdagi ahamiyati, ishlab chiqarish texnologiyalarining zamonaviylashuvi va innovatsion yechimlarning qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy investitsiyalar ko'lami, eksport salohiyatining o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratishdagi hissassi tahlil qilinadi. Muallif sanoat sohasining turli segmentlari, jumladan, elektronika, maishiy texnika va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishlaridagi muvaffaqiyatli loyihalarni misol sifatida keltirib o'tgan. Maqolada kelgusidagi rivojlanish strategiyalari va mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar ham taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat, maishiy texnika, mahsulot sotish, elektrotexnika sanoati.

**Abstract.** This article covers the development processes of the industrial and household appliances sectors in the Republic of Uzbekistan. It provides detailed information on the importance of these sectors in the economy, the modernization of production technologies and the use of innovative solutions in our country. It also analyzes the scale of local and foreign investments, the growth of export potential, and their contribution to the creation of new jobs. The author cites as examples successful projects in various segments of the industrial sector, including the production of electronics, household appliances and other products. The article also presents future development strategies and proposals for solving existing problems.

**Keywords:** industry, household appliances, product sales, electrical engineering industry.

#### 1. Kirish

Jahonning nufuzli moliyaviy va ilmiy, xususan Amerika Marketing Assotsiatsiyasi, To'g'ridan-to'g'ri va raqamli marketing instituti, Ma'lumotlar va marketing assotsiatsiyasi, Xalqaro ijtimoiy marketing assotsiatsiyasi, Gartner texnologiya tadqiqotlari va konsalting kompaniyasi, Forrester tadqiqot va maslahat kompaniyasi singari xalqaro tuzilmalar tomonidan hozirgi kunda xizmatlar bozorini emotsional marketing strategiyalar asosida rivojlantirish, iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish, neyromarketing va hulq atvor iqtisodiyoti kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai

nazardan, maishiy texnika mahsulotlari bozorida neyromarketing vositalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotimizning, jumladan, maishiy texnika sanoatini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida, xususan, «milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash» vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalarining ichki imkoniyatlardan va resurslaridan samarali foydalanishni, moddiy-texnik bazasini tubdan yangilashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim masala bo'lib qolmoqda.

## 2. Muammoning o'rganilganlik darajasi

Maishiy texnika mahsulotlar marketingi xorijiy olimlardan I.Tyunen, V.Laundxardt, A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller, D.Markusen, D.Danning, S.Tauer, R.Ganesxan, D.Nrasad, G.Sanil, S.Koxen, R.Mallik, N.Styuart, X.Djeyms, V.Bell, S.Lell, T.Xikin, A.Amsden, M.Xobdey, Y.Chuang va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan Doronin A.I., Solomanidina T.O., Yuzuk Ye.L., Malseva A.A., Yakoves Yu.V., Kuzuk B.N., Kushlin V.I., Gubernatorov A.M., Koreskaya L.K., Belova O.A., Sergeeva I.A., Stepchenko T.S., Dovbush V.E va boshqalarning ilmiy ishlarida oziq-ovqat mahsulotlari marketingi, neyromarketing, emotsional marketing, sensorli marketingning ayrim jihatlarini o'rganilgan.

O'zbekistonda esa mahsulot sotishda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari Burxanov A.U., Abulqosimov X.P., Mahmudov E.X., Pardaev M.K., Aminov Z.Yu., Muratova Sh.N., Ikramov M.A., Bekmurodov A.Sh., Boltaboev M.R., Ergashxodjaeva Sh.Dj., Xakimov Z.A. va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2021 yildagi PQ-5011-son «Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinganligi elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirishga turtki berdi.

## 3. Tahlil va natijalar

«O'zeltexsanoat» uyushmasi 1994 yil 21 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan O'zbekiston radioelektronika, elektronika va asbobsozlik sanoati konserni asosida tashkil etilgan.

«O'zeltexsanoat» uyushmasi 2014 yil 6 fevraldagi «2014 – 2018 yillarda respublika elektrotexnika sanoatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2123 sonli Prezident qaroriga asosan «O'zeltexsanoat» aksiyadorlik kompaniyasi sifatida qayta tashkil etildi.

2019 yil 4 yanvarda – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Elektrotexnika sanoatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4090-son qaroriga muvofiq «O‘zeltexsanoat» aksiyadorlik kompaniyasi negizida uning mol-mulki va davlatga tegishli boshqa vositalarni, shuningdek, debitor va kreditor qarzdorligini o‘tkazgan holda O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi («O‘zeltexsanoat» uyushmasi) tashkil etildi.

Respublikada elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, yangi turdagi zamonaviy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, tarmoqning investitsiyaviy va eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo‘nalishlardagi ishlarni yanada jadallashtirish, mahalliy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sotish uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish, tarmoq korxonalarining ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida 2021-2022 yillar uchun elektrotexnika tarmog‘i samaradorligining quyidagi asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilanib, unga ko‘ra, mis xomashyosini chuqur qayta ishlash hajmini 2021 yilda 55 ming tonnaga, 2022 yilda 70 ming tonnaga yetkazish; mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2021 yilda 15 trillion so‘mgacha, 2022 yilda 19 trillion so‘mgacha oshirish; mahsulotlar eksporti hajmini 2021 yilda 450 million AQSh dollari, 2022 yilda 600 million AQSh dollari miqdorida ta‘minlash; tarmoqdagi ish o‘rinlari sonini 2021 yilda 27 mingtaga, 2022 yilda 34 mingtaga yetkazish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Mamlakatimizda elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sotish uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish, tarmoq korxonalarining ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida 2023 yilgacha elektrotexnika tarmog‘i samaradorligining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan. Qarorda belgilangan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishini ta‘minlash va ularni 2023 yilda kamida 30 foizga oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bizningcha, elektrotexnika korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Hozirda tarmoqni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra 2030 yilgacha sohada 1 mlrd. dollarga yaqin sarmoya o‘zlashtirilib, 22 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi va barcha korxonalarni modernizatsiyalash hisobiga mahsulot tayyorlash hajmi 5,1 barobarga ortishi kutilmoqda.

Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari va turlarini kengaytirish, yangi tashqi bozorlarni aniqlash, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh, zamonaviy elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish borasidagi sa‘y-harakatlarni izchil davom ettirish lozimligi, bu borada hali foydalanilmayotgan zaxiralar va imkoniyatlar mavjuddir.

Statistik ma'lumotlarning ko‘rsatishicha, sanoat ishlab chiqarishining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi 2016 yilda 105,4 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilda 105,2 foizni, 2018 yilda 110,8 foizni, 2019 yilda 105,0 foizni, 2020 yilda 100,9 foizni, 2021 yilda esa 108,7 foiz o‘rishni tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 2016 yilda 43,8 foizni

tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 61,5 foizga yetdi. Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati 2016 26,5 foizni, 2020 yilga kelib 34,5 foizni tahlil davri oxirida esa 26,5 foizni tashkil qildi (2.1-rasm).

Quyida keltirilgan rasmda 2016 – 2021 yillar oralig'ida sanoat tarmog'ining YaIM tarkibidagi ulushining dinamikasi keltirilgan. Tahlil qilinayotgan davrda sanoat hajmi o'sib, YaIMdagi ulushi yildan-yilga ortib borganini ko'rishimiz mumkin. Tahlil davrining boshida, ya'ni 2016 yilda YaIMda sanoatning ulushi 43,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 61,5 foizga yetgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlarining 2000 yildagi ulushi 1 888,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilga kelib 2000 yilga nisbatan 5,8 marta 2010 yilda, 51,7 marotaba, 2020-2021 yillarga kelib qariyb 200 marta ko'p miqdorda sanoat mahsulotlari yaratilgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan olinganda 2000 – 2015 yillarda o'sib, 2019 yilda esa 2018 yilga nisbatan kichik miqdorda o'sganligini SOVID-19 pandemiyasi ta'siri bilan izohlash mumkin. 2021 yilga kelib yana o'sish sur'ati ta'minlangan. Jadvalda, qazib oluvchi va qayta ishlovchi sanoatning o'sish dinamikasini ham ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

## Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021y.	2022 y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	38119,0	97598,2	368740,2	451633,9	478216,5
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	105,9	105,3	100,9	108,7	105,9
Qazib oluvchi sanoat	94,8	102,9	78,0	110,7	111,2
Qayta ishlovchi sanoat	108,9	105,9	107,9	108,2	104,4

Ayrim yillarda iqtisodiyotimizda yaratilgan yalpi ichki mahsuloti (YaIM) sur'atlariga nisbatan yalpi sanoat mahsuloti (YaSM) sur'atlarining yuqoriligi ham ko'zga tashlanadi. Ikkinchi tomondan, sanoat tarmog'ida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat sur'atlarining mamlakat YaIM sur'atidan past bo'lishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat sur'atlarining sanoat ishlab chiqarishdagiga nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi (2-jadval).

2-jadval

## O'zbekiston Respublikasi hududlar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari

Hududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	111,5	109,7	106,0	106,7	114,7	110,3	105,7	113,9

Qoraqalpog'iston Respublikasi	109,4	118,8	104,3	106,4	122,2	102,2	113,6	105,3
Andijon	108,9	92,4	70,1	134,9	165,2	119,9	99,9	92,3
Buxoro	109,4	113,4	105,1	104,2	102,6	105,9	108,9	114,9
Jizzax	116,2	113,9	120,5	109,5	106,7	101,3	116,7	136,6
Qashqadaryo	109,6	110,1	112,7	91,2	100,7	110,2	110,9	95,7
Navoiy	112,1	113,7	111,5	92,9	100,1	101,1	102,3	107,0
Namangan	113,7	119,4	122,2	113,2	111,6	111,7	96,4	120,1
Samarqand	118,5	108,2	108,9	102,1	111,6	101,6	119,9	112,9
Surxondaryo	107,9	116,0	119,4	97,0	101,5	108,9	121,2	112,5
Sirdaryo	107,7	108,7	111,8	96,6	104,4	101,8	86,3	118,3
Toshkent	116,6	122,6	114,5	94,6	111,7	100,0	115,0	127,0
Farg'ona	109,7	113,1	112,5	106,5	101,3	102,4	111,4	111,2
Xorazm	111,1	124,8	93,8	110,8	130,4	124,1	100,1	117,7
Toshkent sh.	110,5	114,6	119,4	107,4	101,7	106,2	107,0	129,2

Quyida keltirilgan statistik ma'lumotlarda ishlab chiqarish sanoatining 2010-2021 yillar mobaynida tarmoqlar kesimidagi ulushi keltirilgan (2.2-jadval).

Sanoat tarmog'ini tarkibiy jihatdan tahlil qilish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibidagi tarmoqlarni turlicha salmog'ini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2016 yilda sanoat tarmoqlari bo'yicha yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning eng yuqori ulushi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 20,0 foizni to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa, 11,9 foizni tashkil qilgan. 2021 yilda esa, eng yuqori ulushni metallurgiya sanoati 21,4 eng kam ulushni esa yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish tarmog'i 0,3 foizni tashkil qildi.

Sanoatning tarkibiy o'zgarishi milliy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri sanoatni qayta tarkibiy tuzish orqali milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat.

Sanoat mahsulotlari hajmining oshishi tarmoq korxonalarini mablag'lari va resurslari ko'payganligini ko'rsatadi hamda davlat tomonidan soliq yukini qisqartirish, byudjet-soliq siyosatini erkinlashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish borasida olib borilayotgan maqsadli va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlovchi siyosatning ijobiy natijasidir.

O'zbekiston sanoat majmuida qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish uchun ishlab chiqilgan dasturlar samarasi hamda jahon bozorida sanoat mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat, yengil va mashinasozlik sanoatlari mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi pirovard natijada sanoat ishlab chiqarishining qo'shimcha o'sishiga olib keldi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tuzilmasiga e'tiborni qaratsak, mustaqillikning o'tgan davrida yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda yengil sanoatning yirik tarmoqlari: ip

yigiruv va to'qimachilik sanoati sezilarli darajada, doimiy yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bozor islohotlarini tizimli ravishda kengaytirish, kelgusi davr sanoat majmuidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Sanoat tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari mazkur tarmoqlarda yaratilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ichki va tashqi talab ko'lamiga bog'liq. Mamlakat aholisining real daromadi va xarid qobiliyatini yanada oshirishda iste'mol krediti tizimini keskin kengaytirish va takomillashtirish sanoat majmuida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiruvchi ichki talab ulushi oshishi bilan xarakterlanadi. Sanoatda yaratiladigan mahsulotlarga jahon bozoridagi bahoning qulay kon'yunkturaga ega bo'lishi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi sanoat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tashqi omil ta'sirining oshishi bilan tavsiflanadi. Sanoat majmuida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlarda davlatning soliq-byudjet, baho va pul-kredit siyosati, umuman, iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida bir qator ijobiy siljishlarga erishildi. Sanoat korxonalarini isloh qilish, tarkibiy qayta tuzish, sanoatda xususiy mulk ulushini yanada oshirish, tarmoq korxonalari boshqaruvini bozor tamoyillari asosida shakllantirish sanoat rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

#### **4.Xulosa va takliflar**

Hulosa qilib aytganda, jahon bozorlaridagi vaziyat ikki yilda eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mumkinligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, yurtimizda 1 milliard 300 million dollarlik import bozori bor. Bu imkoniyatlardan munosib ulush olish uchun mahsulot, avvalo, sifatli va taniqli bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda va atrofimizdagi bozorlarda yarim o'tkazgich va elektron platalarga talab 6 milliard dollarni tashkil etadi. Shu bois bunday korxonalarni ko'paytirish, elektronika va mikroelektronika yo'nalishida ilmiy, tajriba-konstruktorlik va startap loyihalarni moliyalashtirish, maishiy texnikalarni markirovkalash, eksportni sug'urtalash va kreditlashni kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 9 sentyabrdagi farmoniga muvofiq, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish bo'yicha dastur qabul qilindi. Unda 34 mingta xonadon, vazirlik va idoralarning 6 mingta ob'ektida shunday qurilmalar o'rnatilishi belgilandi. Aholiga kompensatsiya olish, kreditni 3 yil ichida foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratildi.

Ma'lumki, elektrotexnika tarmog'i mis bilan bog'liq. So'nggi yillarda yangi konlar o'zlashtirilib, bu xomashyoning zaxirasi kengaytirildi. Ohangaron tumani va Qarshi shahrida mis klasterlari tashkil etilmoqda. Davlatimiz rahbari bu korxonalarda xorijiy boshqaruvni yo'lga qo'yib, chuqur qayta ishlash loyihalari, ilm va innovatsiyani olib kirish bo'icha ham chora-tadbirlar olib borilmoqda. Kelgusi yil bu yo'nalishda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan 34 ta loyiha ishga tushirilishi davlat dasturiga kiritilgan.

#### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. -<https://lex.uz/docs/5841063>

2. Talaoui, Y. and Kohtamäki, M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», *Management Research Review*, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: <https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386>;

Nyanga, C., Pansiri, J. and Chatibura, D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: <https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018-0069>; Fahey, L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>; Platt, W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.

3. Demin A. Gosudarstvennaya politika v oblasti importozamencheniya. Moskva, 2004 g. str-15. Gribov V.D., Gruzinov V.P., Kuzmenko V.A. Ekonomika organizatsii (predpriyatiya): uchebnik. – M.: KnoRus, 2014. – 407 s.;

4. Doronin A. I. Biznes-razvedka. – M.: Os-89, 2010. – 704 s.; Lemke G.E. Kommercheskaya razvedka dlya konkurentnogo prevosходstva. – M.: Moskovskaya Finansovo-Promyshlennaya Akademiya, 2011. – 352 s.;

5. Satler V.V. Ispolzovanie konkurentnoy razvedki dlya povыsheniya konkurentosposobnosti predpriyatiya [Elektronnyy resurs] // Aktualnyye voprosy ekonomicheskix nauk. – 2009. – S. 170-175.;

6. Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. -Toshkent:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. -160 b.; Mahmudov E.X. Korxonona iqtisodiyoti. - T.: TDIU 2004. - 208 bet.;

7. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.;

8. Pardaev M.K., Aminov Z.Yu. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta'minlash yo'llari. Risola. Samarkand: Zarafshon, 2008.- 47 bet.;

9. Muratova Sh.N. Sanoat tarmoqlari mahsulotlarining iqtisodiy-ekologik xavfsizligini taminlash uslubiyatini takomillashtirish («O'zbekko'mir» AJ misolida) i.f.d. (DSc) il. dar. olish uchun avtoref.-T.-2021, -81 b.;

10. Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. Strategik marketing. – T.: TDIU, 2010; Boltaboev M.R. To'qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. – T.: Fan, 2004.;

11. A.Xakimov. Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 2018 yil. 149 bet.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

